Yoshlar bandligi va biznes imkoniyatlari

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Zulfiqorov Jahongir Turdali o'g'li

zulfiqorovjahongir9@gmail.com

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Mirzakulova Risolat Musurmankulovna

risolatmirzakulova@gmail.com

Annotsiya: Mazkur maqolada yoshlar bandligini ta’minlash, ularning tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishi hamda biznes imkoniyatlarini kengaytirish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda yoshlarning mehnat bozoridagi o‘rni, ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, yoshlar o‘rtasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit sõzlar: Yoshlar bandligi, tadbirkorlik, biznes imkoniyatlari, startap, kichik biznes, mehnat bozori, innovatsiya, iqtisodiy rivojlanish, yoshlar siyosati, o‘zini o‘zi band qilish.

Abstract: Analysis of issues of ensuring employment of youth involved in entrepreneurial activities, attracting them to entrepreneurial activities and youth production. The role of youth in the labor market, their support mechanisms and the importance of innovation processes in modern economic conditions are highlighted. , assistance to economic growth is shown through the development of small businesses and private entrepreneurship among young people.

Keywords: Youth employment, entrepreneurship, business, startup, small business labor market, innovation, economic youth, policy, self-employment.

Yoshlar – Jahon mamlakatlarining va xususan, yurtimiz O‘zbekistonning e’tibori markazidagi aholi qatlami hisoblanadi. 2024-yil – “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nomlanishi va uning naqbul dasturining ham e’lon qilinishi ham alohida ahamiyatliki, yoshlar masalasi davlatimizning bosh strategik siyosati darajasida ekanligidan dalolat beradi. Yoshlar qatlamining o‘ziga xos xususiyatlari ish bilan bandlik sohasida tajribaning yetishmasligi va shag‘dam qadamlik xususiyatining mavjud bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham yoshlar bugun nafaqat davlatning, balki muhim bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, sotsiologik va ijtimoiy hayotning diqqat markazidadir. Xususan, ular bandligini ta’minlash va ishsizligini oldini olish masalasini ham bu boradagi mazmunga qo‘shib o‘tsak maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston qonunchiligi bo‘yicha “14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan aholi qatlami – yoshlar” deb nomlanadi.

Yoshlarni kasb-hunar ta’limiga jalb qilish, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotdan foydalanish kabi chora-tadbirlar orqali bandlik darajasini oshirish mumkin. Masalan, 2022-yilda O‘zbekistonda yaratilgan yangi ish o‘rinlarining 40% dan ortig‘i yoshlar uchun mo‘ljallangan, bu esa o‘z navbatida ularning iqtisodiy farovonligini oshirishga imkon yaratadi. Agar ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, 2025-yilgacha yoshlar bandligi darajasi 60% ga yetishi mumkin. Raqamli iqtisodiyot va onlayn xizmatlar sohasida ish o‘rinlari 30% ga oshishi, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirilgan yoshlarning soni 20% ga ko‘payishi kutilmoqda. Umuman olganda, O‘zbekistonda yoshlarning bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirish uchun kompleks yondashuv zarur. Ta’lim, ijtimoiy loyiha va grant dasturlarini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotning

imkoniyatlaridan foydalanish orqali yoshlar nafaqat o‘z moliyaviy mustaqilligini oshirish, balki mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynashlari mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekistonning kelgusi rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Yoshlar o‘rtasidagi ishsizlik miqyosini tartibga solib turishning muhim usuli faoliyatning asosiy sohasi bo‘lgan ehtiyojini pasaytirishdan iborat bo‘lib, bunga ishlab chiqarishdan ajralgan holdta’lim oladiganlar sonini ko‘paytirish, kichik yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalari bor yosh ayollarga nisbatan esa oilalarga ijtimoiy yordam berishni yaxshilash yo‘li bilan erishiladi. O‘qiyotgan yoshlar sonini kengaytirishning ikkita yo‘nalishi bo‘lishi mumkin. Birinchisi ishlab chiqarishdan ajralgan holda o‘qish imkoniyatlarini kengaytirishdir. Ikkinchi yo‘nalishga vaqtincha chora sifatida qarash mumkin va u kollej o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida mehnat bozori ehtiyojlarini o‘zgarib borishiga muvofiq qayta ixtisoslashuv natijasida ta’lim olish muddatini uzaytirishdir.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida amalga oshirib kelayotgan islohotlarning oldida turgan dolzarb muammolardan biri – bu takomillashgan mehnat bozorini shakllantirish va uning samarali amal qilishini ta’minlash hisoblanadi. Respublikamizda ijtimoiy jihatdan yetarli darajada himoya qilinmagan yoshlar orasida ishsizlar soni salmoqli miqdorga ega bo‘lmoqda. Bunday holat mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini ta’minlash, ularning ishsizligini kamaytirishning samarali usullari va mexanizmlarini tadqiq etishni talab qilmoqda.
Mamlakatimiz aholisi yosh jihatidan ancha yosh hisoblanadi, mehnat resurslari tarkibiga kirib keluvchilar, ya’ni mehnat qobiliyati yoshiga kelib qo‘shiluvchilarning aksariyatini yoshlar tashkil qiladi. Buning asosiy sababi sobiq Ittifoq davrida va mustaqilligimizning dastlabki yillarida respublikamizda aholini tez sur’atlar bilan ko‘payishi natijasida hozirgi kunga kelib, demografik bosimning ortishiga olib keldi. Oqibatda yoshlarni, ayniqsa, qishloq yoshlarining ishsizligini kamaytirish va ularning ish bilan bandligini ta’minlashda jiddiy muammolarni vujudga keltirmoqda.

Davlat tomonidan yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan turli dasturlar, imtiyozli kreditlar va grantlar ajratilmoqda. Bunday yordamlar yoshlarning o‘z biznesini boshlashiga turtki beradi. Lekin imkoniyatlar bilan birga muammolar ham mavjud. Ko‘plab yoshlar biznesni boshlash uchun yetarli bilim, tajriba va moliyaviy savodxonlikka ega emas. Ba’zida esa xavf qilishdan qo‘rqish, ishonchsizlik ham to‘sqinlik qiladi.

Shuning uchun yoshlar bandligini oshirishda ta’lim tizimining roli juda muhimdir. O‘quv muassasalarida nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar, tadbirkorlik asoslari, moliyaviy savodxonlik o‘rgatilishi lozim. Shuningdek, mentorlik tizimi, biznes inkubatorlar va treninglar orqali yoshlarni qo‘llab-quvvatlash samarali natija beradi.

Yoshlar bandligi va biznes imkoniyatlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Agar yoshlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilsa, ular nafaqat o‘zini ish bilan ta’minlaydi, balki yangi ish o‘rinlari yaratib, jamiyat rivojiga katta hissa qo‘shadi. Shu bois, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning tashabbuslarini rag‘batlantirish va biznes muhitini yaxshilash kelajak taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi. (2023). “2023-yil O‘zbekiston aholisining demografik ko‘rsatkichlari”. Statistika.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi. (2022). “Kasb-hunar ta’limi va malaka oshirish dasturlari bo‘yicha hisobot”. Edu.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy Taraqqiyot va Kamomad Vazirligi. (2022). “Kichik va o‘rta

biznesni rivojlantirish bo‘yicha ma’lumotlar”. Econ.uz

4.Mirzakulova, R. M. (2025). Yashil moliya va barqaror investitsiya strategiyalari: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar. *Management, Marketing and Finance International Scientific Journal*, Vol. 2, Issue 3, 158–160. https://doi.org/10.5281/zenodo.15269292

5. Mirzakulova, R. M. (2025). Yashil iqtisodiyotga o‘tish zaruriyati. *Meditsina, pedagogika i texnologiya: teoriya i praktika*.

6. Mirzakulova, R. M. (2023). Ways of effective use of cocktail resources in economic networks. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 100–103. https://doi.org/10.55640/eijmrms-03-02-19

7. Mirzakulova, R. M. (2025). Avtomatizatsiya i sovershenstvovanie biznes-protsessov. *Bulletin News in New Science Society International Scientific Journal*, Vol. 2, Issue 12.

8. Mirzakulova, R. M. (2025). Methods of immersing economic knowledge in the pedagogical process. *Journal of Scientific Research, Modern Views and Innovations*, Vol. 2. Available at: https://spaceknowladge.com

9. Mirzakulova, R. M. (2025). Pedagogik jarayonda iqtisodiy bilimlarni singdirish usullari. *Yangi O‘zbekiston, Yangi Tadqiqotlar Jurnali*, Vol. 3, Issue 7. Available at: https://phoenixpublication.net/